

## NEMATODA FAUNASINING O'SIMLIK QOPLAMIGA TA'SIRI

Abduraxmonova E.

Samarqand davlat universiteti

Sanayeva L.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

### Annotatsiya:

Nematoda faunasining o'simlik qoplamiga ta'siri hamda bo'rtma nematodalarning morfofiziologik xususiyatlari, ularga qarshi kurash chora tadbirlari haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bo'rtma nematodalar (*meloidogyne*), morfofiziologiyasi, kurash choralari.

Bo'rtma nematodalar *Meloidogyne* - o'simliklarda parazitlik qiluvchi nematodalar oilasini o'z ichiga oladi. Erkagi ipsimon, uzunligi 1,2—1,9 mm, urg'ochisi noksimon, uzunligi 0,8—1mm atrofida bo'ladi. Nematodalarning tashqi tuzilishi o'ziga xos tarzda bo'lib, tanasi duksimon, ya'ni oldingi va keyingi uchi ingichkalashgan, ko'ndalang kesimi yumaloq shaklda bo'ladi. Tanasining oldingi qismida oziqlanish organi bo'lgan og'iz teshigi, keyingi uchiga yaqin joyda esa ortiqcha parchalanish mahsulotlarini chiqarib yuboradigan anal teshigi joylashgan. Tanasining keyingi qismi dumni hosil qiladi. Nematodalar tanasining anal teshigi joylashgan tomoni qorin deb ataladi. Jinsiy va ayirish tizimli teshiklari ham ana shu qorin tomondan tashqariga ochiladi. Nematodalarning tanasi sirdan ko'p qavatli kutikula bilan qoplangan. Kutikula nematoda tanasini mexanik ta'sirdan va zaharli moddalardan himoya qiladi. Bundan tashqari kutikula ichki bo'shliq turgori bilan birga somatik muskullar uchun tayanch vazifasini ham bajaradi [1].

Nematodalar turli o'simliklarning yer ostki qismida parazitlik qilib, shish (bo'rtma) paydo qiladi. Poliz (qovun, qovoq, tarvuz), sabzavot (kartoshka, bodring, pomidor, sabzi), texnika ekinlari (kanop, ayrim joylarda g'o'za)ni ayniqsa kuchli zararlaydi. Urg'ochi nematodalar tuxum xaltasiga yil davomida bir necha 100tadan 2000 gacha tuxum qo'yadi. Tuxumdan lichinkalar tuproqqa chiqib, yosh ildizlarga kirib oladi. O'simlik nematodalar qurtlar o'simlikning qaysi qismida yashashiga qarab poya, barg va ildizga bo'linadi. Bo'rtma nematodalar ta'sirida o'simlikning nematodalar bilan zararlangan joyida diametri 4mm dan bir necha sm (ba'zan 25—30 sm) gacha bo'lgan bo'rtmalar paydo bo'ladi. Ildizlarda bo'rtmalar sakillanishi suv ta'minotiga



to'sqinlik qiladi va o'simliklarning normal ovqatlanishini buzadi, natijada issiq quyoshli havoda o'simliklar so'lib qoladi [2]. Zararlangan o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi sekinlashadi, hosildorligi kamayadi va butkul nobud bo'lishi ham mumkin. Nematod tufayli kelib chiqqan ildizlarga kichik zarar ham patogen bakteriyalar, zamburug'lar va viruslarning to'qimalarga kirib borishiga yordam beradi. Bo'rtma nematodalari yer yuzida juda keng tarqalgan bo'lib ma'lumotlarga qaraganda 60 dan ortiq turi mavjud bo'lib shulardan O'zbekiston hududida 5 ta turi uchraydi. Nematodalarning o'simlik qoplamiga ta'siri kuchayib bormoqda ayniqsa issiqxonlardagi ekinlarga katta zarar yetqazmoqda

Hozirgi kunda nematodaga qarshi kurash choralari: tuproqni chuqur haydab oftob taftida quritish o'simliklarni parazit nematodalarga chidamli yangi navlarini yaratish almashlab ekish joriy qilish Sabzavot ekinlarini himoya qilish uchun ma'lum vaqtdan keyin hosilni asl joyiga qaytarish bilan almashlab ekish qoidalariga rioya qilish, o'rim-yig'imdan keyin hosil qoldiqlarini olib tashlash issiqxonalarda tuproqni bug'lash muhimdir, kuz va bahorda butun tuproqni karbamid bilan sepish tavsiya etiladi [3].

Har yili ko'plab odamlar meva va sabzavotlarni o'z hududlarida yetishtirishga kirishadilar. O'simliklarni sarmahsul bo'lishi uchun o'simliklar to'g'ri parvarish qilishini kerak. O'simliklarni kasalliklar va zararkunandalardan himoya qilmay turib, ulardan sifatli va yuqori hosil olib bo'lmaydi. Ekinlar uchun juda katta xavfni tashkil etuvchi eng keng tarqalgan zararkunandalardan biri tuproqdagi nematodalardir. Ularga qarshi kurashish turli usullardan foydalanishga asoslangan bo'lishi mumkin, ammo ulardan qat'i nazar, bu parazitlarni vaqtida aniqlash juda muhimdir. Aks holda, nematodlar o'simliklarning to'liq o'limiga olib kelishi mumkin, shuningdek, odamlar va uy hayvonlarining salomatligiga katta zarar yetkazadi.

Xulosa qilib aytganda nematodalar va ular keltirib chiqaradigan kasalliklarga qarshi kurashda ular to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish, nematod organizmlar va ularni kelib chiqishi, parazit-xo'jayin munosabatlarini, nematodlarni yashashga moslashuvi, parazitlarni hayot sikllari haqida tushunchaga ega bo'lish muhim hisoblanadi.

### Foydalaniladiga adabiyotlar

1. S Dadayev Parazitologiya Toshkent "O'zbekiston" 2006 128-132 b
2. Тулаганов А.Т., Усманова А.З. Фитонематоды Узбекистана часть 1 Издво «ФАН» Уз. ССР, Ташкент. 1975. стр. 372.
3. Хуррамов Ш.Х., Хуррамов А.Ш. "Фитогельминтология", ўқув қўлланма. Термиз, 2008. с. 86-99.

